

Mahalliy budjet daromadlarini kengaytirishda raqamli transformatsion sharoitning zarurligi va ahamiyati

Zikirov Samandar Usmonovich

Termiz davlat universiteti magistratura bosqichi talabasi

«Mahalliy budjetlarning daromadlarini kengaytirish va tashkil qilishda asosan mahalliy budjetlar shakllanishi va foydalanishning barqarorligini ta'minlash masalalarini mustahkamlash»¹, mahalliy moliyaviy manbalari oshirish bugungi kunda eng muxim hisoblanadi. «Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi galda, davlat mablag'larini taqsimlashda va ijtimoiy iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida asosiy moliyaviy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rolni o'ynaydi»².

Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimizning mahalliy budjetlarni moliyaviy hamda iqtisodiy, budjet, «bank-kredit tizimining barqaror ravishda hamda uzluksiz tizimda ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning»³ puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatda ham deb bejiz aytilmagan. O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy budjetlar tashkil etadi⁴.

Hududiy mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotining munosabatlarining shakllanishiga oid tub iqtisodiy islohotlar

¹ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

² <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

³ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

⁴ Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat byudjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo'nalishlari // O'zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2017 yil 10 noyabr. –T.: TDIU, 2017. -b.27-28.

o'tkazilishini budjet tizimida, jumladan, mahalliy budjetlar ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog'liqdir. Islohotlar chuqurlashishi bilan mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan chora-tadbirlar hajmi oshaveradi, shuningdek, ular ixtiyoriga qoladigan daromadlar ham kengayaveradi. "Bizning respublikamiz sharoitida raqobatli muhitni shakllantirish avvaligi tizimdan bizga meros bo'lib qolgan sun'iy monopol tuzilmalarni yo'q qilish bo'yicha qat'iy chora tadbirlarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda asosan istagan tarmoq yoki korxonalar monopolist edi⁵.

«Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi»⁶

«Mahalliy budjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlaridan ajratmalar mahalliy budjet mablag'larning egasi sifatida amaldagi me'yoriy hujjatlarga asoslanib»⁷, Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mahalliy budjetlar va Toshkent shahar budjetlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash asosiy ahamiyatga ega. Jumladan, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va xizmat kursatish hisobidan amalga oshirilayotgan loyihali ko'paytirish xam asosiy hisoblanadi.

Mahalliy budjet ob'ektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat. O'zbekiston Respublikasining davlat budjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining har bir bo'g'ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan turli pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

⁵ <https://lex.uz/docs/3255436>

⁶ <http://elibrary.ru/item.asp?id=42215731>

⁷ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

O‘zbekiston Respublikasi budget tizimida tumanlar va shaharlar mahalliy budget daromadlarida budget tushimini ortishiga, balki mamlakat ishbilarmonlik muhiti hamda investitsion jonlanishiga turtki bo‘ladi. Bu borada davlat moliya organlari, investitsiya vazirligi organlari hamda moliya-kredit tashkilotlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Haqiqatdan ham, budget «bu turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo‘lib, u tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat tomonidan ishlab chiqilgan hamda taqsimlangan yuridik hujjatdan iborat»⁸ deb ta’rif berilishida aynan mahalliy budgetlarning o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

«Mahalliy budget daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi»⁹ . «Mahalliy davlat hokimiyati idoralarining moliyaviy faoliyati moliyaviy masalalar sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, tegishli budgetlarni tasdiqlash va ijrosini ta’minlashdan iborat»¹⁰ . Shuningdek, «O‘zbekistonda mahalliy budget daromadlari va harajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida respublika va uning hududlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi»¹¹ .

Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish birinchi navbatda boshqaruv tizimi tarkibini o‘zgartirishni va bu jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni talab etadi. Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag‘larga ega bo‘lishlari bilan bog‘liq. Albatta, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi-mahalliy budgetlar hisoblanadi.

⁸ http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31489498&mode=p&age=2

⁹ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

¹⁰ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

¹¹ Mamanazarov A. Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtor. – T.: 2002. – 22 b

«O‘zbekiston Respublikasi jamlangan budjetining ko‘rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Jamlangan budjet ko‘rsatkichlari hisobisiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas, chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko‘pgina ko‘rsatkichlari jamlangan budjetdan olinadi»¹² . «Mamlakatimizda budjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlarning xukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko‘tarishga sabab bo‘layotgan qator omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin»¹³ .

«Masalan, mahalliy moliya organlarining budjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida budjet xarajatlarini to‘g‘ri va oqilona tarzda sarflanishi va budjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topishga rag‘batlantirishni ta‘minlashdir»¹⁴ . «Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy budjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig‘imlar hisobiga shakllantiriladi. Bizning respublikamizda ham mahalliy budjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig‘imlar tashkil etadi»¹⁵ . «Unitar tuzilishga ega bo‘lgan mamlakatlarda budjet tizimi ikki bosqichdan, davlat budjeti va mahalliy budjetlardan iborat. Federal tuzilishga ega bo‘lgan mamlakatlarda budjet tizimi uch bo‘g‘indan iborat. Mahalliy budjetlar davlatning moliya tizimini asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi»¹⁶ . Mahalliy budjetlar xarajatlarida asosiy o‘rinni ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.

«Jamlangan budjetning ko‘rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim o‘rinni egallaydi»¹⁷ . «Ayniqsa, budjet sohasida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta‘kidlab o‘tish mumkin.

¹² <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-111169-1.html>

¹³ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

¹⁴ <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-111169-1.html>

¹⁵ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

¹⁶ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

¹⁷ <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-111169-1.html>

Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal budjetga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng mana shu o'tgan davr ichida chuqur iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni, shunindek, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy budjetni shakllantirish va ijro qilish sohasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda»¹⁸ . Chunki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog'liqdir. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi¹⁹ .

Shu o'rinda, 2020 yilda Oliy Majlis Davlat budjetini Qonun shaklida qabul qildi. Mahalliy budjet daromadlari hamda budjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarni tasdiqlashni nazarda tutuvchi yangi budjet taqvimini joriy qilindi. Bu vazirlik va idoralarga dasturlar va investitsion loyihalarni mahalliy budjet daromadlari rejalashtirish imkonini berib, investor va soliq to'lovchilarga o'zlarining biznes-rejalarini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan «mahalliy budjet harajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yilidan) boshlab ularni sarf xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi»²⁰ .

«Mahalliy resurslarni samarali boshqarish, munitsipal iqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro aloqalarini muvofiq ravishda tashkil etish, ishbilarmonlik faolligini oshirish, hamda munitsipal xizmatlar ko'rsatish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish imkonini beradi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida har bir sohada iqtisodiy islohotlar»²¹ ham amalga oshirilmoqda.

¹⁸ <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-111169-1.html>

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi»gi PF-4947-sonli Farmoni.

²⁰ <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-111169-1.html>


²¹ <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-111169-1.html>

Mahalliy iqtisodiyot integratsiyalashuvi jarayonida bozor iqtisodiyotining mamlakatimizda ham davlat moliyasini boshqarishni doimiy tarzda takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Respublika va barcha mahalliy budjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqligini yanada takomillashtirish, shubhasiz regionlarni iqtisodiy rivojlantirishda ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosib raqobatbardoshlikka mumkin qadar barham berishdan iborat.

1.2.1-rasmda keltirilgan Mahalliy budjetlar daromadlarining tasnifi va tavsifida asosan davlat idoralari tomonidan undirilayotgan davlat boji, jarima va boshqa soliq bo'lmagan yig'imlar va boshqa tushumlarni amalga oshirish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy budjet faoliyatini hamda mahalliy budjet daromadlari bazasini o'rganib chiqish va tahlil qilish zarurdir. Yuqoridagi mazkur holatlar mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlashning oqilona yo'llar topishni taqoza etadi, bu tanlangan ilmiy tadqiqot ishimizning dolzarbligi ham ko'rsatadi. Mahalliy budjetdan tushgan daromadlarini tartibga solish amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, haligacha eski usuldan foydalanish bozor iqtisodiyotini o'sishini sekinlashtiradi.

1.2.1-rasm.

Mahalliy budjetlar daromadlarining tasnifi va tavsifi²²



“Ya’ni qat’iy soliqlar avval davlat budjetiga, undirilib, so’ngra uning ma’lum bir foizi (har yili qayta ko’rib chiqilgan holda) mahalliy budjetlar daromadlarini moliyalashtirishga yo’naltirilmoqda. Bizningcha, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar amalga oshirilayotgan davrda belgilangan foizlarga kamida 5 yil davomida o’zgartirish kiritilmasligi lozim.

Bundan tashqari umumdavlat soliqlaridan tushadigan tushumning ulushi bu soliqlardan ajratiladigan foiz miqdori budjet daromadlarini mustahkamlanishi ta’minlanadi shundagina mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy manfaatdorligi oshib, ularning budjet daromadlari mahalliy budjetlar xarajatlarini rejalashtirishda O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rejadagi daromadlaridan kelib chiqadi, hududlar esa o’z xarajatlarini rejalashtirishda ehtiyojlaridan kelib chiqiladi. Budjet jarayonida mahalliy budjetlarning eng maqbul bo’lgan harajatlar rejasi aniqlanadi,

²² Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bu reja esa mahalliy budjetning daromadlar ba'zidan kelib chiqadi. Ba'zi kundalik takroriy salbiy holatlarni bartaraf etishda maqsadli mahalliy budjetlar xarajatlarni me'yor asosida amalga oshiriladi. Mahalliy budjetlar o'zini moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun ularning ba'zaviy daromadlar bazasini ham mustahkamlash lozim. Buning uchun daromad olishni markazsizlashtirish lozim, «bu esa mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy ba'zani rivojlantirishda va o'z o'rnida tegishli bo'lgan hududlarga investitsiya kiritishga xarakatlantiradi va natijada soliq tushumlarini ko'paytiradi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy soliqlar va tushumlar doirasida moliya siyosatini yurgizishda imkoniyat berilishi resurslarni samarali boshqarishga rag'bat uyg'otadi»²³.

Mahalliy budjetlarni kreditli tizimga qo'yishda moliyaviy qarorlar qabul qilishi vaqtidagi har bir qaror, xoh u investitsiyalash, xoh moliyalashtirish yoki aylanma kapitalni boshqarish masalasi bo'lsin, muayyan ishlab chiqarish texnologiyasiga, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini boshqarish tizimi, soliq tizimi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyat yuritadigan raqobat muhiti kabi omillarga bog'liq. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tanlaydigan moliyaviy siyosat variantlari ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot daromad va xarajatlarni faqat moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kiritilgan ko'rsatkichlar asosida baholashga yo'l qo'ymaydi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot "hisoblash usuli" deb ataladigan buxgalteriya printsipli asosida tuziladiki, unga ko'ra har qanaqa daromadni pul mablag'lari tushumi deb bo'lmaydi va har qanday xarajat ham – pulni sarflash hisoblanmaydi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan sof foyda summasi, ko'p jihatdan, kompaniyada shu ko'rsatkichni baholash uchun qabul qilingan yondashuvga, masalan, tovar-moddiy zaxiralarni baholash usullariga yoki firmaning moddiy va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning normativ (me'yoriy) muddatlariga bog'liq.

²³ <http://elibrary.ru/item.asp?id=22903436>

Mahalliy budjetlarni o'rta kreditli oqimlari to'g'risidagi hisobotda esa, unda ko'rsatilgan ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan hisob siyosatiga bog'liq emas. Shunday qilib, ushbu ikki hisobot o'rtasidagi farqni o'rganar ekan, tahlilchi firmada qabul qilingan hisob siyosati firmaning moliyaviy ko'rsatkichlariga qay darajada ta'sir qilishini aniqlashi mumkin.

«Mahalliy budjetlarni daromadlarini kengaytirish borasida mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash, tuman va shaharlar kesimida budjetga tushumlar oshirish lozim»²⁴ :

1. «Mahalliy soliqlar bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining (shahar va tumanlar) budjet vakolatlarini aniq belgilash maqsadga muvofiq. Bunda, mahalliy soliqlarning qat'iy tumanlarga tushumi bo'yicha qonuniy chegaralar belgilash lozim. Bu har bir mahalliy davlat hokimiyati organlarining hudud soliq bazasini kengaytirish, hudud budjet-soliq salohiyatini yuksaltirishdan manfaatdorligini oshiradi»²⁵ .

2. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich pasaytirish zarur. Stavkaning pasaytirish evaziga yalpi ichki mahsulotning oshishi natijasida yo'qotilgan soliq tushumini qoplash imkoniyati mavjud bo'ladi.

3. Real sektor korxonalarida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi investitsion faoliyatni jadallashtirish zarur. Ushbu holat QQS bo'yicha soliq bazasini kengayishi uchun asos hisoblanadi.

4. Mahalliy budjet bazaga qayta qo'shiluvchi xarajatlar tarkibini qisqartirish va yirik korxonalar uchun ixtiyoriy homiylik to'lovlarini to'liq foyda solig'i bazasidan chegirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, investitsion chegirmalarni tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish maqsadga muvofiq.

5. Hududlarda yirik real sektor korxonalarida asosiy vositalar qiymat yuqori ekanligida mol-mulk solig'i stavkasining oshishi bilan soliq yuki oshib

²⁴ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

²⁵ <http://elibrary.ru/item.asp?id=22903436>

borayotganligini e'tiborga olib, ushbu korxonalarda ishlab chiqarishda (tijorat maqsadida) foydalaniladigan va ishlab chiqarishda foydalanilmaydigan asosiy vositalardan kelib chiqqan holda mol-mulk solig'i stavkalarini tabaqalashtirish maqsadga muvofiq. Bu orqali ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarga investitsiya qilishni rag'batlantirishga erishiladi.

6. Mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlashda sub'ektlari faoliyatini yanada jadallashtirish lozim. Kichik biznes sub'ektlari tomonidan yaratilgan har bir ish o'rinlari uchun yagona ijtimoiy to'lovning regressiv stavkalarini joriy etish va sug'urta badalidan muddatli imtiyozlar tatbiq etish maqsadga muvofiq.

7. Hududlarda dam olish va turistik maskanlarni mavjudligi va bu borada salohiyatining yuqoriligini e'tiborga olib, turistik bazalarni, dam olish oromgohlarini tashkil etish uchun investitsiyalarni kengroq jalb etish maqsadga muvofiqdir.